



VOYAGA YETMAGANLAR JINOIY JAVOBGARLIGINING UMUMIY QOIDALARI

Usmonova Naima Toxir qizi

Jizzax viloyati Zarbdor tumani IIB JXX HPB VYMB inspektor-psixologi leytenant

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar huquqlarini ta'minlash davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olingan. Ta'kidlash joizki, qo'yilgan barcha vazifalarning negizi bo'lib, eng avvalo, inson huquqlari himoyasining kafolatlarini so'zsiz ta'minlash, qonun hamda adolat ustuvorligini qaror toptirish hisoblanadi. Shu bois bizdan ushbu mas'uliyatli vazifalarni bajarish uchun o'z vakolatlarimiz, bilimimiz, tajribamiz va bor imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etish, bunda asosiy e'tiborni huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash hamda oldini olishga qaratish va bu borada bir qancha vazifalarni amalga oshirish, huquqiy mexanizimni ham takomillashtirish talab etiladi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlar uchun yaratib berilgan bir qator imkoniyatlarga qaramay, ular o'rtasidagi sodir etilayotgan jinoyatchilik masalasi keng jamoatchilikni jiddiy tashvishga solmoqda.

Insonparvarlik va odillik prinsiplaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi oltinchi bo'limi XV-XVI boblarida "Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari» belgilangan. Bu boblarda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo tizimi, jazo tayinlash qoidalari, javobgarlikdan, jazodan ozod qilish hollari aks ettirilgan. Bizga ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va unga qarshi kurashishga yetarli darajada e'tibor berilgan bo'lsa ham, ammo Jinoyat qonunidagi bunday jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan normalar shu vaqtgacha biror marta ham tizimlashtirilgan holda, hozirgi kodeksimizdagidek, alohida bir bo'limda berilmagan edi. Unda ko'rsatilgan normalar jinoiy javobgarlikning umumiy qoidalarini o'z ichiga olishi bilan birga, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilganda ularga nisbatan jazo turlarining ancha takomillashganligi, sud ularga jazo tayinlashda o'smirning ruhiy rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'lig'ini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagi kishilar va vaziyatning jinoyat sodir etilishidagi o'rnini e'tiborga olib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilishda unga nisbatan davlatimiz tomonidan beriladigan bir qancha yengilliklarda ifodalanishi ko'rsatilganki, bunday holatlar kodeksning 7-moddasida ko'rsatilgan insonparvarlik prinsipining amalda qo'llanilayotganligiga misol bo'ladi. Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir qilinganida, davlat tomonidan ularning bu qilmishiga beriladigan jazoning kattalarga beriladigan jazoga nisbatan ancha yumshoqligi qadimgi quldorlik davlatlariga ham xos bo'lganligini Rim davlatining "XII jadval qonunlari"da ham uchratamiz.

Voyaga yetmaganlar javobgarligi — 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarning javobgarligi, jinoyat qonuniga binoan tayinlanadigan, qat'iy cheklangan jazo turlari.



O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa holatlari e'tiborga olinib, alohida javobgarlik belgilangan. Bular: a) jarima; b) axloq tuzatish ishlari; d) qamoq; e) ozodlikdan mahrum qilish jazolaridan biridir. Ular jinoyatning turi va harakteriga qarab tayinlanadi va voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoning boshqa turlari, qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas (O'zR JK, 81-modda). Voyaga yetmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jazo miqdori va muddatlari ancha qisqartirilgan. Axloq tuzatish ishlari 1 oydan 1 yilgacha muddat doirasida belgilanadi va bu jazoni o'tash uchun mahkumni o'zi yashayotgan joydan boshqa joylarga jo'natish mumkin emas. Qamoq jazosi 1 oydan 3 oygacha muddat doirasida tayinlanadi. Ozodlikdan mahrum qilish muddati ham voyaga yetmaganlar yoshi va jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab belgilanadi: u 16 yoshga to'lmaganlarga — uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — 3 yilgacha; og'ir jinoyat uchun — 6 yilgacha; o'ta og'ir jinoyat uchun — 10 yilgacha; 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlarga — uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — 4 yilgacha; og'ir jinoyat uchun 7— yilgacha; o'ta og'ir jinoyat uchun — 10 yilgacha muddat doirasida tayinlanadi va har qanday holda bu muddatlardan chetga chiqilishi mumkin emas (O'zR JK 85- va 86-moddalari). Sud tomonidan ozodlikdan mahkum etishga hukm qilingan voyaga yetmaganlar jazoni Voyaga yetmaganlar tarbiya koloniyasida o'taydi. Voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishning alohida qoidalari tadbiiq qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya. - T.: Yangi asr avlodi. 2007. B-35.
2. Sattorova M. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish. - T.: TDYI. 2006. B-65.
3. Voyaga yetmaganlar: qarovsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olishning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: Qonun himoyasida. 2016. -B.13.
4. Xushvaqtov O`. Kriminal madaniyatning o`smirlar xulq-atvoriga ta'siri va uni oldini olish choralari. -T.: Huquq Pravo Law. 2005.